

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**BO'LG'USI TARIX O'QITUVCHILARIDA TARIX FALSAFASINING
ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li

Qo'qon DPI tayanch doktaranti.

Annotatsiya: *Dunyoda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalarini yangicha anglashga urinish, unga oid ta'limotlar yaratish tendensiyasi ketmoqda. Chunki bugun tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya kabi ijtimoiy fanlar doirasida tarix falsafasiga oid yangidan-yangi konsepsiyalar yaratilayotgan bo'lsada, ular har qanday holatda ham falsafa tarixiga doir ta'limot va nazariyalarga suyanadi.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy falsafasi, rivojlantirish, konsepsiya, tarixiy jarayon, globalizm, siyosatshunoslik, sotsiologiya, bilim.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ
СОВРЕМЕННЫХ КОНЦЕПЦИЙ ИСТОРИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ У
УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ.**

Анварджонов Арорджон Ахаджон ўғли.

базовый докторант Кокан ГПИ.

Аннотация: *В мире существует тенденция попытаться по-новому понять современные концепции философии истории, создать связанные с ней учения. Потому что сегодня новые концепции философии истории создаются в рамках социальных наук, таких как история, политология и социология, но в любом случае они опираются на учения и теории истории философии.*

Ключевые слова: *Историческая философия, развитие, концепция, исторический процесс, глобализм, политология, социология, знание.*

**PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING KNOWLEDGE OF
MODERN CONCEPTS OF HISTORICAL PHILOSOPHY AMONG HISTORY
TEACHERS**

Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'gli

basic doctoral student Kokan SPI.

Abstract: *There is a tendency in the world to try to understand the modern concepts of the philosophy of history in a new way, to create doctrines related to it. Because today,*

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

new concepts of the philosophy of history are being created within social sciences such as history, political science, and sociology, but in any case, they rely on the teachings and theories of the history of philosophy.

Keywords: *Historical philosophy, development, concept, historical process, globalism, political science, sociology, knowledge.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni asosida belgilangan 71 va 77-maqsadlar ijrosini ta'minlash [1], shuningdek, "yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning boy madaniyat va bunyodkorlik an'analarini o'rganish va ulardan foydalanish" muhim vazifa sifatida belgilanib, "bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi ekanligi"[2.B.5] e'tirof etilishi bejis emas. Bu borada "gumanitar soha olimlari faoliyatini har tamonlama qo'llab-quvvatlash" vazifasi belgilanib, mazkur jarayonda Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish orqali ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yanada rivojlantirishga erishish dolzarb pedagogik muammolardandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonning tarix falsafasi bilan bog'liq zamonaviy davrini tahlil qilishda uning ma'naviy va mafkuraviy asoslari N.Jo'rayev, T.Xojiyev va boshqa faylasuf, tarixchilar asarlarida alohida o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqot ishlarida ko'tarilgan muammo tarix falsafasi masalalarining ayrim jihatlarini o'zida aks ettirib, davr o'zgarishlari mantig'i sivilizasiyalar tarixiga oid falsafiy kontekstda ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot ishida akademik A.Asqarov, A.S.Sagdullayev, professor R.Sulaymonov yondashuvlaridan farqli ravishda tarix falsafasi konsepsiyalarining evolyusiyasi hamda ularning O'zbekiston jamiyatida amal qilish xususiyatlari falsafiy-tarixiy tahlil etildi.

O'zbekistonda buyuk mutafakkirlar merosi, tarixiy ideallarga doir ilmiy izlanishlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ya'ni bevosita pedagogik muammolari A. Sa'diyev, E. Safayeva, N. Remeyev, Ya. G'affarov, T. Toshpo'latov, S. Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjayev, Q.Shonazarovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, yoshlarning axloqiy kamolotida buyuk mutafakkirlar, allomalarning ma'naviy-pedagogik merosi, shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari H.Boltaboyev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Xorijiy davlatlarda bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning sub'yektiv

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

asoslari, uni o'quvchi yoshlarda shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish amaliyoti va pedagogik innovasiyalar Z.Gelman kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Hozirgi davrda tarixiy bilish va tarixiy bilim haqidagi ilmiy bilimlarning chuqurlashib borishi ularning mohiyati borasida turlicha talqinlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat turli fanlar doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda, ushbu tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan ta'riflarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Jumladan, tarixiy bilim deganda odatda o'tmishdagi muayyan bir voqelikni tarixiy bilish jarayonida olingan, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan asoslangan natijasi, mazkur voqelikning inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar sifatida aks ettirilishi tushuniladi. Chunki har qanday xalqning o'z tarixi haqidagi bilimlari, xulosa va baholari o'zga xalqlar tarixi haqidagi tasavvurlaridan, ularni o'rganish, qiyoslashdan tashqarida shakllanadi. Bizning nazarimizda tarixiy bilim turli xalq, millat va elatlarning tarixi, asrlar davomida to'plagan tajribasi, yuksak bilim va tasavvurlari asosida shakllangan qadriyatlari, moddiy va ma'naviy madaniyatida aks etadi. Bu esa uning tarixiy bilishning o'ziga xos mahsuli sifatida qarash imkonini beradi. Shuningdek, u tarix ko'zgusi sifatida o'tmish bilimlarini namoyon qiladi, ya'ni to'plangan bilimlarni kelgusi avlod uchun mustahkamlash, saqlash va yetkazib berish vositasi ham hisoblanadi. Tarixiy bilimning pozitivistik epistemologik asoslarini qayta ko'rib chiqish relyativizm va prezentizm bayrog'i ostida amalga oshgan. Pozitivizmning eng nufuzli va izchil tanqidchilari XX asrning mashhur faylasuf olimlari B.Kroche va R.Dj.Kollingvudlar bo'lgan, ular Gegel ketidan tarixiy jarayonni ruhning rivojlanishi tarixi sifatida tasavvur qilganlar. Ular tarix tabiatdan farqli o'laroq tadqiqotchi ongida obyektiv ravishda aks etishi mumkin emas deb ta'kidlaganlar. Tabiat va tarixning faktlari aynan bir xil manoga ega faktlar emas. Tabiat faktlari bu olim tomonidan ko'z bilan ilg'ab, idrok etiladigan yoki laboratoriyada qayta ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan narsa xalos.[3.B.36]

Tarix faktlari rolini o'tmishda sodir bo'lgan voqealar va hozirda mavjud bo'lmagan shart-sharoitlar o'ynaydi. Ular bevosita idrok etilmaydigan bo'lgandan so'nggina tarixiy fikrning obyektiga aylanadi. «Tarix» atamasi nazariy bilimga qarama-qarshi o'laroq, bevosita kuzatuvlarda to'plangan yoki kurganlarning guvohliklaridan va hujjatlardan olingan, shuningdek, bayon etilgan voqea va dalillardan iborat har qanday empirik bilimni bildiradi. Tarixchi ixtiyorida faqat hujjatlar yoki boshqa qadimgi narsalar, o'tmish qoldiqlari, ulardan u qandaydir yo'l bilan faktlarni tiklashi lozim.

Xulosa. Shunday qilib, tarix tushunchasi butun ijtimoiy-tarixiy mavjudlik va uning o'zgarishlari; buni «voqealar tarixi» deb nom olgan. Tarix unda paydo bo'lib, unda mavjud bo'ladigan barcha narsalarning borliq usulidir. Tarixni qaytmaslik vaqtli jarayon deb tushunish bizning kunlarimizda uning maxsus reallik sifatida ko'rish g'oyasi bilan to'ldirilgan. Ko'plab mutafakkirlar uchun «jamiyat» va «tarix» juda yaqin tushuniladi; tarix tushunchasiga afzallik berish asosi shundaki, tarix mavjudlik usuli jamiyatning

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

fundamental xarakteristikasidir, ijtimoiy hayot o'z mohiyatiga ko'ra tarixning o'zidir. Jamiyat va tarix to'g'risida alohida narsalar deb qarash ma'noga ega emas, chunki u yagona ijtimoiytarixiy reallikdir. XX asrning 20-30 yy. AQShda pozitivizm tanqidchilari kuchli pozitsiyaga ega bo'lgan, ular tarixiy bilimning nisbiyligiga (Amerika relyativizi deb ataluvchi) urg'u berganlar. Tarixning klassik paradigmasi rad qilindi, unga ko'ra, tadqiqotchilardan mustaqil tarzda barqaror "g'ishtchalar"-faktlar mavjud va tadqiqotchilar ular asosida tarixning obyektiv obrazini yaratadilar, degan fikrga asoslangan. Atoqli Amerika olimlari Ch.Bird va K.Bekker tarixchining o'z tadqiqot natijalariga shaxsan o'zi ta'sir qilishining muqarrarligi, o'tmishni obyektiv ravishda bilish mumkin emasligi, chunki, tarixiy jarayonning tabiatining o'ziga ko'ra, tarixchi o'rganayotgan narsasiga xolisona munosabatda bo'la olmaydi deb ta'kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 5.
3. Афанасев Ю.Н. История против эклектики. М.1980.
4. Барг М.А. "Историческое время": методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66—67.
5. Баринава Ёе.П., Иполитов Г.М., Бобкова Ёе.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. — М. 2010